



BOBORAHIM MASHRAB G'AZALLARIDA PRESEDENT BIRLIKLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Kumushoy Baxtiyor qizi

NamDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7528192>

ARTICLE INFO

Received: 02nd January 2023

Accepted: 11th January 2023

Online: 12th January 2023

KEY WORDS

Pretsedent nomi, toponim, onomapoetika, poetonim, topoetonim, semantika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining muhim vakillaridan biri Boborahim Mashrab g'azallari asosida o'zbek mumtoz adabiyotida pretsedent nomlarning qo'llanishi tavsiflab berilgan. Presedent nomlarning turli madaniy, poetik va lingvistik vazifalari atroflicha yoritilgan.

Bugungi kunda tilshunoslik fanida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Buni til tizimini har tomonlama o'rganishdan boshlab, tilshunoslikning insonga murojaatida ko'rish mumkin. Hozirgi kundagi talqinlarga ko'ra, til izolyatsiya qilinmagan, balki ma'lum madaniy jamoaga mansub shaxs ta'sirida shakllanadigan hodisa sifatida tadqiqot obyektiga aylandi deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, til va xalq madaniyati o'rtasida yaqin munosabatlar o'rnatildi. Hozirgi bosqichda lingvistik tahlilning maqsadi endi faqat lingvistik tizimning turli xil xususiyatlarini aniqlash deb hisoblanishi mumkin emas. Shunday ekan presedent nomlar - bu matnda ma'lum bir shaxsni (masalan, shahar, aholi punkti, korxona, tashkilot va boshqalarni) belgilash uchun emas, balki o'ziga xos madaniy belgi, ma'lum fazilatlar, xususiyatlarning ramzi sifatida ishlatilgan taniqli xususiy ismlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Tilshunoslarning oldingi nomlarga bo'lgan qiziqishi, avvalo, tillar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, madaniyatlararo va tillararo muloqot jarayoniga e'tiborning kuchayishi bilan bog'liq. Turli lingvokultural jamoalarga mansub tilshunos shaxslarning aloqalari faqat lingvistik va madaniy to'siqlarni bartaraf etish sharoitida samarali bo'ladi. Bundan tashqari, Homo sapiens (homo sapiens) shakllanish yo'lidagi eng muhim bosqichlardan biri inson shaxsining shakllanishi natijasida o'ziga xos ismning paydo bo'lishi edi. Obyektlarni nomlash jarayonlarini tavsiflashda "presedent nomi" atamasidan foydalanish, bunday o'tish imkoniyatini yaratadigan sababni - nom bilan ustuvorlik xususiyatlarini egallashni o'rganishga imkon beradi.

Boshqa biz ko'rgan va o'rgangan adabiyotlarda esa, presedent nom bu - mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlardir. Masalan, Majnun, Suqrot, Xotam, Karbalo, Kavsar.

Presedent nomlar, bir tomondan, ona tilida so'zlashuvchi kishining kognitiv bazasining bir qismidir, boshqa tomondan, ular xususiy ismlar sinfiga kiradi. Bunda din, mifologiya, siyosat, adabiyot, san'at, kino, folklor kabi muhim nomlarning manbalari aniqlanadi.



Odamlar bilib bilmagan holda og'zaki nutqda inson hayotining turli sohalarida o'zlari tomonidan qabul qilingan Presedent nomlardan foydalanadilar. Presedentli matnlar - ma'ruzachilar (yozuvchilar) o'z nutqlarida ko'p ishlatadigan taniqli voqealar, ismlar, iboralar nomlaridir.

Presedent matnlar bilan bir qatorda presedent nom, presedent hodisa, presedent vaziyat kai tushunchalar ham mavjud. Presedent nomlar taniqli matnlar bilan bog'liq bo'lgan individual tushunchalarni anglatadi. Turli xil matnlardan olingan iqtiboslar va maqollar presedent matnlar qatoriga kiradi. Odatda, ular dastlab paydo bo'lgan xalq og'zaki ijodi doirasidan o'tishadi. Jumladan, musulmonlarda Qobil va Hobil voqeasi presedent vaziyatni ham bildiradi.

Presedent birliklar onomastik metafora, allyuziv nom, «so'zlovchi» nom kabi funksiyalarga ega.. Presedent nomlar adibning estetik tafakkuri va ko'zlagan badiiy niyatiga chambarchas bog'liqdir. Ular quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- a) allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish;
- b) matnning intertekstualligini ta'minlash;
- d) komik effekt hosil qilish;
- e) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash;
- f) kuchli his-hayajonni ifodalash;
- g) turli ma'nodagi murojaatni ifodalash;
- h) badiiy san'atlarni yuzaga keltirish¹.

Matnda presedent nomlar badiiy maqsad uchun ishlatilganda o'quvchi yengil tushunib olishi, millatning madaniy, ijtimoiy, tarixiy qarashlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular intertekstuallik xususiyatni ham ifodalaydi.

*Gar saxovating jahonni tutsa chun Hotam sifat,
Ishq riyodin xoli yo'q, sohib saxovatman dema.
("So'z chamani"8-bet)*

Mashrabning "Dema" radifli g'azalidan olingan ushbu baytda presedent nom sifatida Hotam ismi qo'llangan.U saxovatpesha inson sifatida tasvirlangan.

Presedent birliklarning badiiy xususiyatlarini onomapoetika sohasi o'rganadi. Onomapoetika fanlar qorishuvidan kelib chiqqan bo'lib, lingvopoetikaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Onomastik birliklar muayyan badiiy maqsad bilan ishlatilganda «poetonim» deb ataladi. Agar joy nomlari biror badiiy maqsad uchun xizmat qilsa, «topopoetonim» deyiladi.

*Tashnalab qolgan o'shal mardi Xudodin o'rgulay,
Motam-u afg'oni dashti Karbalo kelturmisham.
("So'z chamani"43-bet)*

Yuqorida keltirilgan baytda Karbalo so'zi presedent birlik sifatida qo'llangan.Presedent birlikni yuzaga chiqarishga dasht, shahid, qon, qizil qon so'zlari tayanch so'z sifatida xizmat qilgan.Bizga ma'lumki, Karbalo badiiy adabiyotda ko'p uchraydigan dasht nomidir.

Presedent nomlar o'z manbasiga ko'ra biror xalqning ijtimoiy,tarixiy, madaniy, siyosiy, badiiy sohasiga doir faktlarga mansub bo'ladi. Har bir xalqning xotirasida saqlanuvchi milliy va universal presedent nomlar o'sha xalqning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aks

¹ Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birliklar lingvopoetikasi.Тошкент-2017.Диссертация.



ettiradi. Bunday nomlar badiiy matnda bir necha vazifani bajaradi: tashqi va ichki aloqadorlikni hosil qiladi; ekspressivlikni ta'minlaydi; badiiy matndagi onomastik repertuarni kengaytiradi; badiiy ifoda vositalari tarkibida kelib ta'sirchanlikni oshiradi. Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan faktlarga ishora qilish, ulardagi nomlar va turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish usuli – allyuziya badiiy matnda keng tarqalgan. Bunda, ayniqsa, antroponimlar intertekstual matn unsuri vazifasida ko'p qo'llanib, allyuziv nom sifatida lingvopoetik qimmatga ega bo'ladi. Badiiy matnda qahramonning familiyasi va ota ismini qo'llash orqali rasmiy munosabatga xoslik ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda taxalluslar badiiy matnda turli so'z o'yinlari va badiiy san'atlarni hosil qilish kabi estetik maqsadlarda qo'llanadi. Ayniqsa, ittifoq san'atini yuzaga keltirishda ular muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, intertekstuallikni hosil qilishda va badiiy matnning makoniy individualligini ta'minlashda topoetonomlardan keng foydalaniladi. Real toponimlar badiiy matnda ko'p hollarda metaforik ma'noda qo'llanib, matnda ifodalangan g'oyaning shakllanishiga hamda badiiy mazmunni ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bunday toponimlar kontekstda «joy» ma'no uzvini saqlagan holda ko'chma ma'no kasb etib, muayyan tushunchaning badiiy shakli sifatida voqelanadi hamda badiiy matnda topoetonom maqomiga ega bo'ladi. To'qima toponimlar badiiy matnda jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega bo'ladi. Ular badiiy matnda tasviriylik, subyektiv munosabat, yumoristik ruh kabi badiiy effektlarni yuzaga keltirishda muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Real nomlarning lingvopoetik salmog'i, ayniqsa, hajviy asarlarda to'qima nomlarga qaraganda kamroq bo'ladi. To'qima nomlar hajviy va yumoristik asarlarda personaj tabiatiga xos qabariq xususiyatlarni ohorli, original tarzda ta'kidlashi bilan alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Badiiy matnning onomastik ko'lamining asarning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilish barobarida biror janr tabiatiga xos effektini yaratishda (masalan, tarixiy koloritni yuzaga keltirishda), matnning ko'pqatlamlilikini ta'minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o'ziga xos madaniyatini ko'rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda muayyan ijodkor asarlarining (umumiy) yoki alohida bir asarning (xususiy) onomastik ko'lamini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Odamlar bilib bilmagan holda og'zaki nutqda inson hayotining turli sohalarida o'zlari tomonidan qabul qilingan presedent nomlardan foydalanadilar. Prtsedentli matnlar - ma'ruzachilar (yozuvchilar) o'z nutqlarida ko'p ishlatadigan taniqli voqealar, ismlar, iboralar nomlaridir.

Talmeh mumtoz she'riyatda keng qo'llangan badiiy san'atlardan biri. Bunda shoir mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali o'z fikrini muxtasar hikoya qiladi. Shunga ko'ra, talmeh she'rda oz so'z bilan ko'p ma'noni ifodalash san'ati deyiladi.

*Agar har bandaga Xalloqi olam rahnamo bo'lmish,
Shafoatgor Mahsharda Muhammad Mustafo bo'lmish.
"So'z chamani" 111-bet.*

*Arsh kursi, lavh, qalamni sayr etib oldim javob,
Man Muhammadni suyub do'sti xudo qildim bu kun.
("Mehribonim qaydasan" 231-bet)*



Boborahim Mashrab ruhiyat olami asosida suyuklisi – Rasululloh SAV bilan me'rojini tasavvur qiladi, bu bilan Arsh kursisi, lavhul mahfuz, qalam (ilk yaratilgan narsalar)ni ko'rganligini aytadi. Bular ham insoniyatning yaratilishi bilan bog'liq bir qancha islomiy rivoyatlarni eslatadi. Rivoyatlarga ko'ra, eng avval qalam yaralgan, qalam bilan Lavhga butun yaratilmishlarning taqdiri yozilgan bo'lib, Azozilning Iblisga aylanishi ham shu lavhga yozilgan.

Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, intertekstuallikni hosil qilishda va badiiy matnning makoniy individualligini ta'minlashda topoetionimlardan keng foydalaniladi. Real toponimlar badiiy matnda ko'p hollarda metaforik ma'noda qo'llanib, matnda ifodalangan g'oyaning shakllanishiga hamda badiiy mazmunni ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bunday toponimlar kontekstda «joy» ma'no uzvini saqlagan holda ko'chma ma'no kasb etib, muayyan tushunchaning badiiy shakli sifatida voqelanadi hamda badiiy matnda topoetionim maqomiga ega bo'ladi.

*Xonaqou Ka'badin, Mashrab, muroda yetmadim,
May ichibon sokini butxona bo'ldum oqibat.
("Mehribonim qaydasan" 208-bet)*

Ka'ba islom olamida eng muqaddas joy hisoblanadi. Qibla, namoz vaqtida musulmonlar yuzlanadigan joy Ka'badir. Musulmonlar tarafidan amalga oshiriladigan haj va Umra Ka'ba atrofida amalga oshiriladi. Ka'ba muqaddas joy hisoblanadi. Badiiy adabiyotda inson ko'ngliga nisbat sifatida Ka'ba so'zidan foydalaniladi.

*Jannat birla Kavsar suvini og'zima olmay,
La'ling g'ami zahr erdiki, shahdi dahan ettim.
("So'z chamani" 56-bet).*

Kavsar-islomga ko'ra jannatdagi ajib bir daryo yoki hovuzning nomi, Qur'oni Karimdagi suralardan biri ham shunday nomlanadi. Tafsir va hadislarida Kavsarning suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo'lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik bilmaydi. Shuningdek, qiyomat kuni jannat nasib etgan mo'min-musulmonlar mazkur Kavsar suvidan ichishlari to'g'risida bashorat beriladi.

To'qima toponimlar badiiy matnda jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega bo'ladi. Ular badiiy matnda tasviriylik, subyektiv munosabat, yumoristik ruh kabi badiiy effektlarni yuzaga keltirishda muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Real nomlarning lingvopoetik salmog'i, ayniqsa, hajviy asarlarda to'qima nomlarga qaraganda kamroq bo'ladi. To'qima nomlar hajviy va yumoristik asarlarda personaj tabiatiga xos qabariq xususiyatlarni ohorli, original tarzda ta'kidlashi bilan alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Badiiy matnning onomastik ko'lam asarning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilish barobarida biror janr tabiatiga xos effektni yaratishda (masalan, tarixiy koloritni yuzaga keltirishda), matnning ko'pqatlamlilikini ta'minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o'ziga xos madaniyatini ko'rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

*Menga irshod bersang, Odamu Havvoni hozir qil,
G'aribu xastaman, Nuhi nabiulloni hozir qil.
("Mehribonim qaydasan" 66-bet)*



Mashrab qalamiga mansub ushbu – “Hozir qil...” radifli g‘azalining birinchi baytida presedent birlik sifatida Odam, Havvo, Nuh nomlari tilga olingan. Bizni ayonki, yer yuzida yaratilgan ilk inson Odam Ato va ularning juft-u halollari Momo Havodir. Nuh alayhissalom esa odamzodning to‘fondan keyingi avlodlarining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, presedent nomlar - bu matnda ma‘lum bir shaxsni (masalan, shahar, aholi punkti, korxona, tashkilot va boshqalarni) belgilash uchun emas, balki o‘ziga xos madaniy belgi, ma‘lum fazilatlar, xususiyatlarning ramzi sifatida ishlatilgan taniqli xususiy ismlarni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Tilning presedent bazasini bilish darajasi odamning ushbu tilni qanchalik yaxshi bilishini ko‘rsatadi.

References:

1. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013.
2. Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
3. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 279-282.
4. Khashimova, K., & Kuziev, U. (2020). PARTICIPATION OF LANGUAGES OF OTHER SYSTEMS IN THE FORMATION OF THE UZBEK LITERARY LANGUAGE. Збірник наукових праць ЛОГОС, 22-25.
5. Ashurov, D. A. (2019). RELIGIOUS INTERPRETATION OF TIME IN EPOS “ALPOMISH”. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 194-198.
6. Кузиев, У. Я. (2017). About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries). In Научные исследования: теория, методика и практика (pp. 281-286).
7. Mehmonaliyevich, Toshpolatov Azamat. "Remarks on the pragmatic study of the ratio category." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.7 (2022): 139-144.
8. Mirzo Kenjabek, So‘z chamani – Toshkent: Akademnashr, 2020.
9. KUZIIYEV, U. (2018). About bases of classification of the words in composing new complanatory dictionaries. Scientific journal of the Fergana State University, 1(1), 104-106.
10. Yusupov J, Mehribonim qaydasan – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990.
11. D. Nu‘Monova, U. Qo‘Ziyev Badiiy matnni lingvostatistik tomondan tahlil qilish // Oriental Art and Culture. 2020. №I (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnni-lingvostatistik-tomondan-tahlil-qilish> (дата обращения: 10.01.2023).